

She'r va quyon

Bagdod shahri yaqinida bir chamanzor bor edi. Unda qushlar, hayvonlar bermalol yashar edi. Yoqimli shamol rayhon hidini har tomonga taratib turar edi. Gulzordan yuz yulduz nur sochib turar, har bir yulduzning husni uchun to'qqiz falak sargardon edi. U chamanzorda hayvonlar ko'p edi. Chamanzor havosining yaxshiligidan, suvining tozaligidan, noz-ne'matlarining ko'pligidan u yerdagi hayvonlar yaxshi umr kechirar edilar. Chamanzorga yaqin bir joyda badfe'l bir sher yashar edi. U mudom bechora hayvonlarning rohatini buzar edi. Bir kuni hayvonlar maslahatlashib, sherning oldiga borishdi va unga shunday deyishdi:

— Ey podsho, biz hammamiz sening ra'iyat va fusarolarimiz. Sen har kuni zahmat tortib bittamizni yo tutib olasan, yoki tutib ololmaysan. Bizlar hamma vaqt sendan qo'rqamiz va sen ham bizlarni qidirib azob chekasan. Bizlar shunday bir maslahat qildik: agar sen bizlarga tegmasang, har kuni bir ovni tush vaqtida oshxonaga yetkurgaymiz va va'damiz ustidan chiqqaymiz. Sher rozi bo'ldi. Hayvonlar har kuni yig'ilib, qur'a tashlar edi. Qur'a kimning otiga chiqsa, uni sherga tutib berishar edi. Shu ahvolda bir necha vaqt o'tdi. Bir kuni qur'a quyonning otiga chiqdi. Quyon do'stlariga qarab dedi:

— Agar sizlar meni ushlab sherning oldiga yubormasangiz, men sizlarni shu balodan qutqaraman.

Do'stlari quyonning so'ziga xursand bo'ldilar.

Quyon bir necha soat to'xtab turdi, tush vati o'tdi. Sherning qorni haddan tashqari ochdi va jahli chiqib tishlarini gijirlatib turdi. Quyon sekin-asta sherning yoniga bordi. Sher darg'azab edi. Quyon sherning o'ch olishini sezdi va sekingina kelib salom berdi.

Sher:

— Qayerdan kelayotirsan, hayvonlarning ahvoli qalay? — deb so'radi.

Quyon:

— Hayvonlar avvalgi odatlari bo'yicha bir quyonni mening yonimga qo'shib yuborgan edilar va sizning xizmatigingizga kelayotgan edik, nogoh bir sher bizga uchrab qoldi. Biz unga sizning ovqatingiz ekanligimizni aytsak ham, iltifot qilmadi: “Bu mening ov qiladigan joyim va bu yerdagi ovlar meniki”, deb lof urdi.

Men qo'rqib qochdim va sizga ahvolni bayon qilgani keldim. Bu gapni eshitib, och sherning achchigi chikdi va dedi:

— Ey quyon, sen uni menga ko'rsata olasanmi? Men undan o'ch olaman!

Quyon dedi:

Nega ko'rsatmas ekanman! U podsho hazratlari sha'niga ahmoqona so'zlar aytib, beadablik qildi. Agar men baquvvat bo'lganimda, u sher boshining kosasini jonivorlar uchun suv ichadigan jomga aylantirar edim.

Quyon shu so'zlarni aytib yo'l boshladi, sher esa uning orqasidan boraverdi. Quyon sherni katta bir quduqning labiga olib keldi. Quduqning suvi g'oyat tiniq va musaffo edi. Har kim suvga qarasa, o'z aksini bexato ko'rar edi.

Quyon dedi:

— Ey podsho, u nobakor mana shu quduqning ichida. Men uning haybatidan qoʻrqaman. Meni quchogʻingizga olsangiz, men sizga uni koʻrsataman.

Sher quyinni quchogʻiga oldi va quduqqa qaradi. U quduqda oʻz aksini koʻrib, uni boshqa bir sher deb gumon qildi, goʻyo u sher oʻzining taomi boʻlgan quyinni quchoqlab turgandek boʻlib koʻrindi Sher quyinni tashlab, oʻzini suvga urdi va suvga

choʻkib ketdi, nafasi qaytib xalok boʻldi. Quyon eson-omon qaytib hayvonlarga sherni oʻldirganini xabar qildi. Hayvonlar quyondan xursand boʻlib, chamanzorda tinchosoyishta va xotirjam yashay boshladilar.

(“Kalila va Dimna” kitobidan.)

